



TALABALARDA MUSTAQIL TA'LIM TOPSHIRIQLARINI BAJARISH FAOLIYATINING METODIK JIHLATLARI

Botirov A.M.

*Toshkent kimyo xalqaro universiteti,
Samarqand filiali mustaqil tadqiqotchisi*

Tayanch so'zlar: ta'lim, jarayon, vazifa, boshqarish, tushuncha, ifoda, munosabat.

Ключевые слова: образование, процесс, задача, управление, понимание, выражение, отношение.

Key words: education, process, task, management, concept, expression, attitude.

РЕЗЮМЕ:

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni ko'proq talabaning mustaqil faoliyatiga asoslanadi, bu esa talabadan o'zini nazorat qilish ko'nikmasini talab etadi. Zamonaviy nodavlat OTMlarning shakllanishi va yangi o'quv dasturlarining joriy etilishi talabalarni o'quv jarayonini mustaqil tashkil etishga imkon beradi. Shu bilan birga, o'z bilimini tekshirish, baholash va tuzatish qobiliyatiga ega bo'lish ham shaxsni tarbiyalash jarayonida katta ahamiyatga ega. Ayni paytda oliy ta'lim muassasalarida pedagog kadrlar tayyorlash tizimi hamda maktablarda ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etish davlat talablariga to'liq javob berishini ta'minlashga harakat qilinishi ma'lum darajada asoslangan.

РЕЗЮМЕ:

В высших учебных заведениях учебный процесс в большей степени основан на самостоятельной деятельности студента, что требует от студента умения владеть собой. Формирование современных негосударственных вузов и внедрение новых образовательных программ вынуждают студентов самостоятельно организовывать учебный процесс. При этом большое значение в процессе воспитания человека имеет умение проверять, оценивать и корректировать собственные знания. В настоящий момент в определенной степени базируются усилия по обеспечению полного соответствия системы подготовки педагогических кадров в высших учебных заведениях и организации воспитательной работы в школах требованиям государства.

SUMMARY:

The educational process in higher educational institutions is based more on the independent activity of the student, which requires the student to have self-control skills. The formation of modern non-state HEIs and the introduction of new curricula force students to independently organize the educational process. At the same time, the ability to check, evaluate and correct their own knowledge is also of great importance in the process of educating a person. At present, efforts are being made to ensure that the system of training pedagogical personnel in higher educational institutions and the organization of educational work in schools fully meet state requirements.

Rivojlangan jamiyat barpo etish yo'lida shaxsning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash dolzarb masala hisoblanadi. Bu muammoni hal etishda maktabgacha ta'lim muassasalari, maktablar va oliy ta'lim dargohlari o'z hissasini qo'shishi zarur, chunki kelajak avlod uzluksiz ta'lim tizimi bosqichlaridan o'tadi. Ayni paytda oliy ta'lim muassasalarida pedagog kadrlar tayyorlash tizimi hamda maktablarda ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etish davlat talablariga to'liq javob beradi deb aytish qiyin.

Bugungi kunda talabani o'z bilimini mustaqil egallash va uni rivojlantirishga tayyorlash, jamiyat rivoji uchun muhim vazifa sifatida ko'rilmogda. Ta'lim dargohlari, dasturlar va loyihalar orqali mutaxassislarni tayyorlaydi, ammo ularga bilimni mustaqil ravishda boyitish va yangilab turish zarurati yuklanadi. Bu holatda oliy ta'lim muassasalari talabani to'g'ridan-to'g'ri bilimlar bilan ta'minlay olmaydi, balki ularni mustaqil ta'lim olishga, o'zini nazorat qilishga va bilimlarini yangilashga undaydi.

Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, talabalarining o'zini boshqarish ko'nikmalarining yetarlicha rivojlanmaganligining asosiy sabablari qatoriga quyidagilar kiradi: o'qituvchilarning o'zini nazorat qilishning ahamiyatini to'liq tushunmasligi, o'qitish tartibining tizimli emasligi, o'qituvchilarning talabalar orasida o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini samarali tashkil eta olmasligi, maxsus mashqlar va o'quv qo'llanmalarining etishmasligi. Oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv dasturlarining o'qitishga yetarlicha yo'naltirilmagani sababli talabalarining o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini mustaqil ravishda rivojlantirish qiyinlashadi. Shuningdek, o'qituvchilarning o'zini nazorat qilishda yetarli tajribaga ega emasligi ham muammoning dolzarbligini oshiradi. O'zini nazorat qilishning mohiyati va o'quv jarayonidagi roli ilmiy va uslubiy adabiyotlarda ko'plab tadqiq etilgan bo'lsa-da, bu mavzuni chuqurroq o'rganish talab etiladi.

N.N.Azizxo'jaeva, B.Adizov, N.Sh.Shodiyev, R.A.Mavlonova, B.X.Xo'jayev va Q.B.Jo'rayevning tadqiqotlari oliy ta'lim muassasalari talabalarining o'z faoliyatini mustaqil tekshirish va baholash, xatolarni aniqlash va tuzatish qobiliyatini shakllantirish bilim sifatini oshirishga olib kelishini ko'rsatmoqda. Shu sababli, o'qituvchilar dars o'tishda talabalarining bilim va ko'nikmalarini o'zini nazorat qilishga qaratilgan shakl va usullarni qo'llashi zarur. Bunda o'zini nazorat qilish usullarining o'quv jarayonidagi barcha bosqichlarda muntazam mavjud bo'lishi ta'kidlanadi. Pedagog olimlar R.A.Mavlonova va B.X.Xo'jayev tadqiqotlarida talabalarining ilmiy izlanishlarni rivojlantirish, o'zini o'zi o'stirish va mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biri ekanligi alohida ko'rsatib o'tilgan.



R.A.Mavlonova o‘zining “Umumiy pedagogika” darsligida aqliy tarbiyaning ahamiyatiga to‘xtalib, “Aqliy tarbiya ilm-fan, texnika va texnologiyadagi yutuqlar bilan tanishtirish orqali o‘quvchilarda ijodiy, erkin va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi” deya fikr bildiradi. Muallif shaxsni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan psixologik qobiliyatlarni sanab o‘tar ekan, nutq, diqqat, xotira, tafakkur, ijodiy xayol va boshqa ijobiy xislatlarni rivojlantirish orqali shaxsning o‘zini rivojlantirish imkoniyatlari oshishini ta’kidlaydi. Bu qobiliyatlarni rivojlantirish, jumladan, mustaqil fikrlash, kuzatuvchanlik, ijodiy tafakkur va mantiqiy xulosalar chiqarish, o‘z fikrini asoslash kabi ko‘nikmalar o‘quvchining aqliy salohiyatini mustahkamlashda muhim omil bo‘lishi mumkin.

Ta’lim sifatini oshirish uchun nazorat jarayoni muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon o‘qituvchi tomonidan olib boriladigan tashqi nazorat va talabalar tomonidan amalga oshiriladigan ichki nazoratdan iborat bo‘lishi mumkin. O‘qituvchilar har bir talabaning bilimlarini to‘liq nazorat qilishga imkon topa olmagan uchun talabalarda o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini shakllantirish samarali yechim hisoblanadi. Shuningdek, mustaqil ta’lim topshiriqlarini muvaffaqiyatli bajarish talabalarining o‘z faoliyatini baholash, xatolarni topish va o‘zini nazorat qilish qobiliyatlari bilan bog‘liq.

Ko‘plab tadqiqotlarda, jumladan, S.Qambarovanning ishida o‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishda mutolaa, tahlil, sintez, umumlashtirish va boshqa kognitiv jarayonlarni mustaqil o‘zlashtirish muhim ahamiyatga ega ekani ta’kidlanadi. Muallif o‘quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olib, Gardner nazariyasidagi intellektual tiplarni e’tiborga olgan holda bilimlarni mustahkamlashni ma’qullaydi. Bu yerda topshiriqlar tizimi o‘quvchilarning aniq intellektual xususiyatlariga moslashtirilgani va shu asosda metodik jihatdan guruhlashtirilgani nazarda tutiladi.

Ushbu tadqiqotlarning xulosalari shuni ko‘rsatadiki, talabalarda o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini shakllantirish masalasi hali to‘liq ishlab chiqilmagan bo‘lib, o‘quv jarayonida uning o‘rni va ahamiyati haqida chuqur ilmiy izlanishlar o‘tkazishga ehtiyoj mavjud.

Gardner nazariyasida ayrim usullardan foydalanish orqali fan sohasiga qiziquvchan, ma’lum yo‘nalishlarda alohida qobiliyatga ega yoki individual shug‘ullanuvchi o‘quvchilarni qamrab olish mumkinligi ta’kidlanadi. Umuman olganda, o‘quv jarayoni va o‘zini nazorat qilishni tashkil etishda bir qator qarama-qarshiliklar mavjud. Bular orasida talabaning o‘zini nazorat qilish zarurati va ularning tayyorgarlik darajasi, o‘zini nazorat qilish istagi va imkoniyatlari,

samarali usullardan foydalanish ehtiyoji va talabning algoritmik boshqarishga tayyor emasligi kabilar mavjud.

O‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishda talabaga xato va kamchiliklarni aniqlash, ularning sabablarini tushunish va harakatlarini tuzatish imkonini beruvchi usullarni topish zarur. Universitet talabalari uchun kasbiy tayyorgarlik bir qator ilmiy ishlarida o‘rganilgan. S.Matchonov o‘quv adabiyotlari bilan mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish, N.Muslimov pedagogik ta‘lim tizimida tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish, B.Adizov esa ijodiy faoliyatni shakllantirish mavzulariga e‘tibor qaratgan.

Yoshlarda mustaqil ta‘lim topshiriqlarini bajarish va o‘quv fanlarini o‘rganish asosida ko‘nikmalarni rivojlantirish mumkin. Mustaqil ta‘lim topshiriqlari bilimlarni izlash, tahlil qilish, mustahkamlash va tizimlashtirish orqali ko‘nikmalarni shakllantirish jarayonidir. Ushbu yondashuvni faollik, tizimlilik va maqsadga yo‘nalganlik bilan bog‘lash orqali mustaqil ta‘lim tushunchasini yanada kengroq talqin qilish mumkin.

N.A.Muslimov mustaqil ta‘limni bilimlarni mustaqil o‘zlashtirish, tasavvurlarni rivojlantirish va avtonom faoliyatni tashkil etish jarayoni sifatida ta‘riflaydi. S.Qambarova esa mustaqil ta‘lim olish jarayonida o‘quvchilarda bilimlarni amaliyotda qo‘llash va o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini shakllantirish ularning umumiy kasbiy rivojlanishini ta‘minlaydi, deb ta‘kidlaydi. N.A.Muslimov o‘zining “Kasb ta‘limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida talabalarni mustaqil ta‘lim olish tamoyillari va metodik shartlarini chuqur o‘rgangan.

Metodist S.Matchonovning tadqiqoti o‘quvchilarning mustaqil ta‘lim topshiriqlarini bajarishiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda darslarda og‘zaki va yozma ijodiy ishlarni tashkil etish muhimligi ta‘kidlanadi. Barkamol avlodni shakllantirish uchun ijodiy ishlash va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish talab etiladi. Mustaqil fikrlashga ega bo‘lmagan o‘quvchi ijodkor bo‘la olmaydi, mustaqil faoliyatni samarali tarzda olib bora olmaydi.

M.X. Baybayeva o‘zining “Pedagogik texnologiyalar asosida kasb-hunar kollejlari o‘quvchilarining umumkasbiy fanlardan mustaqil ta‘lim topshiriqlarini tashkil etish” mavzusidagi tadqiqotida yuqoridagi fikrlarni dalillar bilan asoslab beradi. Ushbu tadqiqot o‘rta maxsus kasb-hunar ta‘lim muassasalarida o‘quvchilarning mustaqil ta‘lim topshiriqlarini tashkil etish jarayonlariga e‘tibor qaratgan.

Tadqiqotda talabalarning o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini shakllantirish masalasi muhim o‘rin tutadi, chunki bu kadrlar tayyorlash jarayonini takomillashtirishning muhim vazifalaridan biridir. O‘zini nazorat qilish



ko'nikmalari talabalarga o'z faoliyatlarini tartibga solishga, xatolarni aniqlashga, o'z harakatlarini to'g'rilashga va natijada ta'lim jarayonining sifatini oshirishga imkon beradi.

B.Rahmonovning tadqiqotlari o'zini boshqarishning asosiy omillari ichki va tashqi aloqalarga asoslanishini ko'rsatadi. Ruh va tana o'rtasidagi munosabatlar, shuningdek, dunyoqarash, aql-idrok va ijodiy fikrlash insonning yaxlit tizimini shakllantiruvchi muhim elementlar hisoblanadi. Shu bilan birga, jamiyatni yagona tizimga bog'lovchi iqtisodiy, siyosiy va axloqiy munosabatlar, insonni birlashtiruvchi ong, axborot, qadriyatlar va ijodiy faoliyat kabi omillarni alohida ta'kidlaydi. O'zini tashkil etish insonning o'zini rivojlantirishga yo'naltirilgan faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lib, bu jarayonlarda harakat qilish va o'zini tarbiyalash muhim o'rin tutadi. Shu bois, noxiziqli va ijtimoiy sinergetika metodologiyasi asosida insonning o'zini rivojlantirish jarayonlarini o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Kasbiy tayyorgarlik jarayonida o'zini nazorat qilish ko'nikmalarining shakllanishi tabiiy ravishda amalga oshmaydi, shu sababli o'qituvchi ushbu ko'nikmalarni shakllantirish uchun muayyan shart-sharoitlarni yaratishi kerak. Ushbu sharoitlar o'quv jarayonining barcha turlariga, shu jumladan mustaqil ta'lim topshiriqlariga ham tegishli bo'lishi lozim.

Adabiyotlar:

1. Husanboyeva Q. Adabiyot o'qitish metodikasi va muammoli ta'lim. – Toshkent, “Innovatsiya-Ziyo”, 2022. – 404 bet.
2. Оконь В. Основы проблемного обучения. – Москва, Просвещение, 1988. – 320 с.
3. Лернер И.Я. Проблемное обучение. – Москва, Просвещение, 1974. – 298 с.
4. Nasirov A. Talaba mustaqil ishini tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibi to'g'risida. Ma'lumot uchun qarang: Nasirov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Mustaqil ta'lim topshiriqlari. Kurs ishlari. – Samarqand, SamDU nashri, 2019. – 116 bet.